

“Korrupsiyaga qarshi kurashishda barchamiz mas’ulmiz”

“Korrupsiyaga qarshi kurashishda barchamiz mas’ulmiz”

Korrupsiyaga qarshi kurash dunyo miqyosida bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan bir bo’lib qolmoqda. Bu illatga qarshi kurash ko’plab mamlakatlarni qamrab olmoqda. Hozirgi paytda respublikamizda korrupsiyaga qarshi kurash doirasida bir qator dasturlar qabul qilindi va ular bo’yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Bugun O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida “Korrupsiyaga qarshi kurashishda barchamiz mas’ulmiz” shiori ostida davra suhbatini bo’lib o‘tdi.

□Mazkur davra suhbatida Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo’limi boshlig’i Mirazim Parmanov, Madaniyat vazirligi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo’limi boshlig’i Komiljon Raximov, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi Mas’ul xodimi Miranshoh Rasulov, Jinoyat ishlari bo’yicha Mirzo Ulug’bek tuman sudining sudyasi Dilnoza Xaliknazarova, Toshkent shahar Adliya boshqarmasi mas’ul xodimi Shaxruz Samiyev, Mirzo Ulug’bek tumani Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi Tergov bo’limi boshlig’i Zoirjon Saparov va institut mas’ullari ishtirok etdi.

□□Tadbir avvalida mehmonlarni tanishtirar ekan, Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo’yicha birinchi prorektor Shohbek Ergashev bugungi jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurash har birimizning yuksak vazifamiz ekanligini, doimo xalq e’tiborida bo’lgan san’atkor uchun bu mas’uliyat ikki hissa yuqori ekanligini ta’kidladi.

Suhbat davomida mehmonlar korrupsiyaning jamiyat taraqqiyotiga zarari, mamlakatning iqtisodiy, moliyaviy, ijtimoiy xavfsizligiga bevosita ta'sir qilishi, shuningdek, uning huquqiy oqibatlarini, korrupsion holatga duch kelganda qay tartibda va qayerga murojaat qilish lozimligi to'g'risida batafsil ma'lumot berishdi.

Davra suhbatida ta'kidlanganidek, "Korrupsiyadan xalos bo'lish uchun inson tafakkurini, dunyoqarashini o'zgartirishimiz, uni stereotiplardan xalos qilishimiz va korrupsiyaga jazoning muqarrarligini tushuntirishimiz kerak".

□ Shuningdek suhbat yakunida ishtirokchilarni qiziqtirgan barcha savollarga mutasaddilar tomonidan batafsil javob berildi.

Forum taassurotlari.

Joriy yilning 16-19-sentyabr kunlari Rossiya Federatsiyasining Ufa shahrida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi ijodiy va ilmiy ziyolilarining XVII forumi bo'lib o'tdi.

"Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi: umumiy qadriyatlar va madaniyatlar xilma-xilligi" mavzusida bo'lib o'tgan ushbu forumda O'zbekiston madaniyat vaziri o'rinbosari Murodjon Majidov rahbarligidagi mamlakatimiz delegatsiyasi tarkibida ishtirok etdik.

Forumning tantanali ochilish marosimi 17 sentyabr kuni "Toratau" kongress holida bo'lib o'tdi.

Shuningdek, Forum doirasida

□ Hamdo'stlik mamlakatlari ijodiy innovatsiyalari va milliy

madaniy an'analari;

□ MDHda raqamli transformatsiya davrida fan va ta'lim;

□ Volontyorlik ijtimoiy rivojlanish manbai sifatida: avlodlar o'rtasidagi aloqa;

□ Hamdo'stlik mamlakatlari ijodiy universitetlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik;

□ Hamdo'stlik davlatlarining inklyuziv san'ati: hamkorlik shakllari nomli sho'ba yig'ilishlari tashkil etildi.

"Hamdo'stlik mamlakatlari ijodiy universitetlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik" nomli sho'ba yig'ilishida "Madaniyat va san'at sohasida O'zbekistonning xalqaro aloqalari va munosabatlari" mavzusida ma'ruza qildim. Ma'ruzada bugun Yangi O'zbekistonning xalqaro maydondagi o'sib borayotgan roli, xorijiy davlatlar bilan o'rnatilayotgan madaniy hamkorlik, umuman bugungi o'zbek san'atining jahondagi o'rni va ahamiyati, yurtimizda Davlatimiz Rahbari tomonidan san'at va madaniyat sohasi rivojiga qaratilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik, ushbu sohalarning bugungi taraqqiyoti, istiqbollari, shuningdek, institutda talabalarning sifatli bilim olishlari uchun yaratilgan imkoniyatlar haqida so'z yuritildi.

Forum dasturida belgilangan tadbirlardan tashqari, Rossiya Federatsiyasi Prezidentining xalqaro madaniy hamkorlik bo'yicha maxsus vakili Mixail Shvidkoy, Zagir Ismagilov nomidagi Ufa davlat san'at instituti rektori Ilmar Almuxametov, Moskva davlat madaniyat instituti rektori Yekaterina Kudrina va boshqa xorijlik ziyolilar bilan ham uchrashib, mamlakatlarimizda olib borilayotgan ilmiy-ijodiy jarayonlar, amalga oshirilayotgan o'zgarishlar to'g'risida fikr almashildi, kelgusida birgalikda ilmiy konferensiyalar o'tkazish, ilmiy tajriba va ilmiy ma'lumotlar almashish, hamkorlikda madaniy tadbirlar o'tkazish kabi bir qator masalalar muhokama qilindi.

Shuningdek, MDH Yoshlar simfonik orkestri va F.Gaskarov nomidagi Davlat akademik milliy raqs ansamblining konsertlari va boshqa madaniy tadbirlarda ham ishtirok etdik

Xulosa qilib aytganda, mazkur Forumda ko'plab ziyolilar bilan fikr va tajriba almashdik. MDH davlatlaridagi ijodiy jarayonlar bilan yaqindan tanishdik. Eng muhimi esa yurtimizda so'ngi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar xorijda ham e'tibor va e'tirof qozonayotganiga guvoh bo'ldik.

O'zbekiston davlat san'at
va madaniyat instituti rektori,
professor Nodirbek Sayfullayev

Adiblar xiyoboni – ma'naviyat maskani

□ Adiblar xiyobonida haykallari qad rostlagan ziyoli yozuvchi shoirlarning hayoti va ijod namunalarini o'rganish hamda talabalarining bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti talabalarining ushbu ma'naviyat maskaniga tashriflari boshlandi.

□□ Bugun Teatr san'ati fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari Jamshid Sobirov boshchiligida fakultet talaba-yoshlari ishtirokida xiyobonda ma'naviy-badiiy tadbir tashkil etildi.

Tadbir avvalida iste'dodli talabalar buyuk shoir Muhammad Yusuf haykali oldida kitob mushoirasi hamda shoir ijodiga

mansub she'rlardan kuy-qo'shiqlar ijro qildilar.

Shundan so'ng esa O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Lola Eltoyeva bilan ijodiy uchrashuv tashkil qilindi. Lola Eltoyeva adabiyot bilan hamnafas bo'lish ijodkorning ijodiy barkamolligida juda yuksak ahamiyatga ega ekanligi, xususan, Muhammad Yusufning ijodi, nafaqat o'zbek adabiyoti, balki qo'shiqchilik san'atida ham alohida bosqichga aylangani, bugun ham qanchadan qancha yoshlar uning she'rini kuyga solib san'at olamiga qadam qo'yayotganini ta'kidladi hamda barcha yoshlarni kitob o'qishga, o'zbek adabiyoti namoyondalari ijodiga ko'p va xo'p murojaat qilishga undadi.

O'z navbatida talabalar ham shoirning she'rlarini yoddan o'qib berdi hamda eng namunali talabalarga aktrisa tomonidan kitoblar sovg'a qilindi.

**□ Bugun O'zbekiston davlat
san'at va madaniyat
institutida talaba-
yoshlarning ma'naviy-
mafkuraviy immunitetini
mustahkamlash borasidagi
ustuvor vazifalarga**

bag'ishlangan davra suhbatini bo'lib o'tdi.

Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor Shohbek Ergashev, Ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash bo'yicha rektor maslahatchisi Alisher Ishchanov, Institut profilaktika inspektori Fayzulla Akbarov va talabalar ishtirok etgan mazkur yig'ilishda, asosiy e'tibor yoshlar o'rtasida jinoyatchilik, huquqbuzarliklarni oldini olishga qaratildi.

□□Shuningdek, ichki tartib va odob-axloq qoidalari, talabaning huquq va majburiyatlari, institut hududida tengdoshlari, ustozlari va institut xodimlari bilan bo'ladigan muomala madaniyati va boshqa masalalar yuzasidan tushuncha berildi.

Bundan tashqari, institutda talabalarni sifatli ta'lim olishlari uchun yaratilgan imkoniyatlar, tashkil etilayotgan sport musobaqalari, boshqa ko'rik tanlovlar, shuningdek, turli festivallarni ularda ishtirok etish shartlariga ham alohida to'xtalib o'tildi.

Talabalarni qiziqtirgan barcha savollarga ham batafsil javob berildi.

**0'zbekiston davlat san'at va
madaniyat institutida
"Markaziy Osiyo filmlarida**

an'analar va yangilikka intilish tendensiyalari" mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi.

Anjumanni ochib berar ekan, Kinematografiya agentligi direktori, professor Shuhratilla Rizayev bugun bildiralajak fikrlar, ilmiy ma'ruzalar avvalo, xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalarni yanada rivojlanishi uchun xizmat qilishi, shuningdek, jahon va o'zbek kinosining bugungi kuni, kuzatilayotgan yangiliklar va ertangi taraqqiyoti haqida muhim ma'lumotlarga boy bo'lishiga umid bildirib, konferensiya ishiga muvaffaqiyat tiladi.

Shundan so'ng so'zga chiqqan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor Baxtiyor Yakubov ushbu konferensiyada Fransiya, Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, Ozorbayjon, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi hamda yurtimizning 70 ga yaqin san'atshunos olimlari va ilmiy tadqiqotchilar ishtirok etishining o'ziyoq ilmiy anjumanning xalqaro ahamiyati yuqori ekanligini, bugun bildirilajak fikr-mulohazalar, takliflar, albatta, kelgusida Markaziy Osiyo davlatlarida kino sohasining rivojiga hissa qo'shishiga umid bildirdi hamda konferensiyadagi ma'ruzalar to'plam sifatida nashr etilganini ma'lum qildi.

Konferensiyaning yalpi majlisida "Kinoavangarddan kinoklassika (mumtoz kino) sari bosib o'tilgan yo'l", "Новая ступень формирования и развития киноиндустрии в азербайджане", "Kinoshunoslik fan sifatida", "Современный кинематограф Казахстана (2021-2024): тенденции и достижения",

“Teleseriallarning g‘oyaviy ifodasidagi izlanishlar”, “Поэтика кыргызского мироустройства в фильмах Клары Юсупжановой” kabi ko‘plab e‘tiborli ma‘ruzalar yig‘ilganlar e‘tiboriga havola etildi.

Shundan so‘ng konferensiya “Zamonaviy badiiy kino san‘atining yetakchi tamoyillari”, “Hujjatli kino va televideniye audiovizual san‘at turi sifatida”, “Kino-televideniye san‘ati badiiy ta‘limining shakllanishi va vorisiylik masalalari” kabi sho‘balarga bo‘lingan holda davom ettirildi.

Konferensiya so‘ngida barcha ishtirokchilar sertifikat bilan taqdirlandi.

Xalqaro hamkorlik kengaymoqda

Barcha sohalar rivoji uchun xalqaro hamkorlik aloqalarini chuqurlashtirish va kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Chunki, san‘at milliy va umumbashariy qadriyatlarga tayanadi.

Joriy yilning 14-sentyabr O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti rektori rahbarligida yangi o‘quv yilini samarali tashkil etish, institut rivoji uchun istiqboldagi rejalarni belgilab olish masalalariga bag‘ishlangan kengaytirilgan yig‘ilishda ham ko‘plab masalalar qatorida xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish yuzasidan ham bir qancha vazifalar belgilangan edi.

Bugun institutga ikkita xalqaro mehmon tashrif buyurdi.

Dastlab Sungkyul universiteti (Janubiy Koreya) professori Jin Hwan Ra tashrif buyurdi hamda ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor Baxtiyor Yakubov bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Tashrif mobaynida ko‘plab masalalar qatorida 2025-yil iyul

oyida tashkil qilinishi rejalalashtirilayotgan teatr festivali, unga tayyorgarlik masalalari muhokama qilindi.

Shuningdek, bugun institutga yana bir nufuzli mehmon Turk dunyosi jurnalistlar federatsiyasi bosh direktori Menderes Demir tashrif buyurdi.

Ushbu uchrashuvda bir qancha hamkorlik aloqalari o'rnatish masalalari muhokama qilindi.

Jumladan, Menderes Demir joriy yilning 5-9-noyabr kunlari IX Turk dunyosi Hujjatli kino festivalini O'zbekistonda o'tkazilishi munosabati bilan tadbirni 1 kunini O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida tashkil qilish niyatini bildirdi.

_Teatr_Ural "Твое время" VIII xalqaro talabalar teatr laboratoriyasida talabalarimiz ishtirok etmoqda

Avval xabar qilganimizdek, joriy yilning 8-14-sentyabr kunlarida Rossiya Federatsiyasining Verxnyaya Pishma shahrida Yekaterinburg davlat teatr san'ati instituti tashabbusi bilan _Teatr_Ural "Твое время" VIII xalqaro talabalar teatr laboratoriyasi bo'lib o'tmoqda.

Mazkur laboratoriyada O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti nomidan "Teatr san'ati" fakulteti "Estrada va

ommaviy tomoshalar san'ati" kafedrasi professori Jahongir Mamatqosimov hamda mazkur fakultetning Estrada va ommaviy tomoshalar rejissyorligi ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabalari Shavkat Bazarbayev va Ruslan Rustamov ishtirok etmoqda.

Institut jamoasi Yekaterinburg davlat teatr san'ati instituti "Dramaturgiya" yo'nalishi talabasi Shusharin Artyom tomonidan yozilgan «Do'stona tashrif» pyesasi asosida spektakl eskizi tayyoshlashdi.

Bugun 14-sentyabr laboratoriya o'z ishini yakunladi. Ijodiy jamoa a'zolari tashkiliy qo'mita tomonidan laureatlik diplomi bilan taqdirlandi.

Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori rahbarligida yangi o'quv yilini samarali tashkil etish, institut rivoji uchun istiqboldagi rejalarni belgilab olish masalalariga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilish bo'lib o'tdi.

ig'ilishda barcha prorektorlar, bo'lim boshliqlari, fakultet dekanlari va professor-o'qituvchilar ishtirok etdi.

Tanqidiy va tahliliy ruhda o'tgan yig'ilish avvalida institut rektori, professor Nodirbek Sayfullayev so'zga chiqib, dastlab so'ngi uch oydan oshiqroq vaqt davomida institutda erishilgan yutuqlarga to'xtaldi.

“Talaba-yoshlar ijodiyoti» ko'rik-festivalini qayta tiklangani, kasbiy (ijodiy) imtihonlarning adolatli shaffof tarzda tashkil etilgani, “Turizm va mehmondo'stlik”, “Inson resurslarini boshqarish” va “San'at jurnalistikasi” kabi 3 ta yangi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari ochilgani va boshqa ko'plab omillar keltirib, o'tildi.

O'tgan yillar davomida kafedralar faoliyatini tashkil etishda nizom talablariga yetarlicha e'tibor berilmagani, o'quv-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishdagi xatoliklar, fakultet dekanlari tomonidan talabalar harakatini nazorat qilish ishlari ham o'z vaqtida bajarilmagani, o'quv rejalardagi ayrim fanlar hattoki, kattaroq bo'lgan bir mavzu negizida olingani, yakka mashg'ulotlar bo'yicha auditoriyalar fondini inobatga olmasdan professor-o'qituvchilarga o'quv-yuklama soatlari loyihasini shakllantirilishi, xalqaro hamkorlik shartnomalari imzolangan xorijiy oliy ta'lim muassasalarining aksariyati bilan ish olib borilmagani, oxirgi 3 yilda fundamental va amaliy grantlar qo'lga kiritilmagani, fakultet va kafedralarda 2023/2024 o'quv yili davomida yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar yo'nalishida tadbirlar talab darajasida o'tkazilmagani, institut hududidagi basseynni ta'mirlash may oyida to'xtab qolgani va o'quv binosidagi issiqlik tizimini yangilash ishlari yakuniga yetkazilmagani kabi o'quv-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy va xo'jalik sohalarida bir qancha kamchiliklar sanab o'tildi va ularni bartaraf etish har bir xodimning oldidagi birinchi vazifa ekanligini ta'kidladi.

“Bizning ham maqsadimiz kimnidir kamchiligini yuziga aytib, uni aybdor qilish emas, balki muammolardan chiqish uchun birgalikda to'g'ri yo'l topishdir” deya xulosa qildi, Nodirbek Sayfullayev

Kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarga ham to'xtalib, “Ijodiy parvoz” media markazi, maxsus ovoz yozish

hamda animatsion multfilmlar yaratish uchun maxsus o'quv laboratoriyasi tashkil etish, aynan san'at va madaniyat sohasi talablari asosida IT yo'nalishidagi kadrlar tayyorlash, har ikki yilda bir marotaba talabalar o'rtasida Xalqaro teatr, musiqa, raqs va folklor san'ati tanlovlarini o'tkazish, professor-o'qituvchilarning xorijda malaka oshirishlarini ta'minlash, binar, ya'ni ikkitalik himoya tizimi asosida dissertatsiya himoyalari tashkil etilishi, qabul jarayonlariga har bir yo'nalish bo'yicha komissiya raisligiga xorijdan malakali mutaxassislar jalb etilishi, Olmalik kon-metallurgiya kombinati xomiyligida diplom spektakli yaratilishi va ushbu spektakl ijodkorlarini yutimiz bo'ylab gastrol safarlarini tashkil etilishi va boshqa bir qancha rejalarni sanab o'tildi.

Shuningdek, Nodirbek Sayfullayev soha rivoji uchun har qanday taklif va fikrlarni tinglashga va ularni institut imkoniyati va vakolati doirasida amaliyotga tadbiq etishga tayyorligini bildirdi.

Institut rahbariyatidagi lavozim o'zgarishlarini ham yana bir bor eslatib o'tar ekan, rektor barcha lavozim tayinlovlari adolatli va shaffof, hech qanday tanish-bilishchiliklarsiz va kadrlarning salohiyatidan kelib chiqib amalga oshirilganini ta'kidlab o'tdi.

Institut rektori nutqi yakunida Hazrat Navoiyning:

Naf'ing agar xalqqa beshakdurur

Bilki, bu naf' o'zungga ko'prakdurur.

misralarini iqtibos keltirib "institutimizga, sohamizga qanchalik jon kuydirsak nafi nafaqat madaniyat va san'at sohasiga, avvalo o'zimizga yetadi" deya barchani faolikka chorladi.

Shundan so'ng ushbu yig'ilish ochiq muloqot va shaffof tarzda davom etdi. O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq artisti, Milliy qo'shiqchilik kafedراسi professori Xayrulla Lutfullayev, ushbu kafedra professori, O'zbekiston xalq hofizi

Orolmirzo Safarov, mazkur kafedra dotsenti Xurriyat Isroilova, Cholg'u ijrochiligi kafedrası professori O'rozali Toshmatov, Qo'g'irchoq teatri san'ati kafedrası professori Maryam Ashurova, san'atshunoslik fanlari nomzodi Go'zal Xoliqulova, San'atshunoslik va madaniyatshunoslik kafedrası dotsenti Ashurali Jo'rayev, ushbu kafedraning yana bir dotsenti Davlat Mullajonov, Madaniyat va san'at menejmenti kafedrası professori Viktor Alemasov, Sahna nutqi kafedrası dotsenti Ramz Qodirov va boshqa professor-o'qituvchilar fikr bildirar ekan, ushbu muloqotdan ko'ngli to'lgani va bu davomli bo'lishi kerakligini ta'kidlab, institutda ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, kelgusida bugun aytilgan yuksak marralarni zabt etish, Yangi O'zbekiston san'ati va madaniyatini yanada yuksaltirish, soha yanada rivojlantirish uchun rahbariyat bilan birga xizmat qilishga tayyor ekanligini ma'lum qilib, bu boradagi fikr-mulohazalarini bayon qilishdi.

Shuningdek, professor-o'qituvchilar tomonidan ko'tarilgan savollarga institut rektori va prorektorlar tomonidan batafsil javob berildi. Ko'plab muammolarning yechimi aytildi.

Bir so'z bilan aytganda, mazkur yig'ilishda mavjud muammolar va ularning yechimi aniq belgilab olindi. Kelgusida Davlatimiz Rahbari tomonidan bildirilayotgan ishonchga munosib bo'lish, yurtimiz san'atini dunyoga tanitadigan yetuk kadrlar tayyorlash, institutni yanada rivojlantirish uchun qilinadigan ishlar aniq belgilab olindi.